

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov**



30-oktabr 2025-yil

**10.00.08 – Folklorshunoslik ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranturaga
kirish imtihoni dasturi**

TOSHKENT – 2025

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi (2025-yil 28-oktabrdagi 4-sonli bayonnoma).

**Tuzuvchilar: f.f.n., dots. A.Tilavov,
f.f.f.d., dots. I.Sayitqulov,
f.f.f.d., kat.o‘qit. H.Aliqulova**

KIRISH

O‘zbek xalq ijodiyoti ajdodlarimizning ko‘p asrlik badiiy tafakkur durdonalarini o‘zida mujassamlashtirgan bebaho milliy qadriyatlardan biri sanaladi. Folklor asarlari asrlar davomida xalqimizni yuksak ma‘naviy komillik ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadga xizmat qilib kelgan. Jonli og‘zaki an‘anada yaratilib, rivojlanib kelgan ana shu badiiy qadriyatlarni to‘plash, folklor asarlarini arxivlashtirish, uning eng yaxshi namunalarini nashr etish, ilmiy o‘rganish va ommalashtirish folklorshunoslikning asosiy maqsadini tashkil etadi.

10.00.08 – Folklorshunoslik ixtisosligi bo‘yicha tuzilgan malakaviy imtihon dasturi folklorshunoslik tarixi, xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, folklorlarda tur va janrlar hamda ularning badiiyati, mustaqillik davri folklorining o‘ziga xos xususiyatlari kabi xalq og‘zaki ijodida muhim hisoblangan ilmiy-nazariy masalalarini qamrab oladi. Dastur ilmiy darajaga talabgorning yuqori bilim va malakaga ega mutaxassis bo‘lishi uchun zarur hamda muhim ilmiy-nazariy manbalar asosida tuzildi.

Folklorshunoslikka oid ilk qaydlar XI asrning ulug‘ tilshunosi Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida mavjuddir. Shuningdek, Narshaxiy, Rabg‘uziy, Alisher Navoiy, Bobur, Shayx Sulaymon Buxoriy, Abulg‘oziy kabi shoir va olimlar ham folklor namunalarini yozib olib, o‘z asarlariga kiritishga muayyan hissa qo‘shganlar.

XX asrning 20-yillarida atoqli olim Hodi Zarifovning fundamental tadqiqotlari bilan o‘zbek folklorshunosligining nazariy asoslari yaratildi va badiiy merosni o‘rganishga bag‘ishlangan bu yo‘nalish alohida mustaqil fan sifatida shakllandi.

O‘zbek folklorshunosligi ko‘p tarmoqli fan yo‘nalishi bo‘lib, hozirgi kunda uning eposshunoslik, ertakshunoslik, qo‘shiqshunoslik, musiqa folklorshunosligi kabi bir qator fundamental tadqiqot yo‘nalishlariga ega. Shuningdek, hozirga qadar mifologiya va qadimgi davr folklori, o‘zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti, marosim folklori, bolalar folklori, xalq lirikasi, folklor va yozma adabiyot munosabati, o‘zbek folklorining epik janrlar tizimi, xalq dostonchiligi, dostonchilik maktablari va ularning epik an‘analari, turkiy xalqlar folklorining o‘zaro aloqalari va folklorlarda janrlararo munosabatlar, og‘zaki teatr va xalq tomosha san‘ati, xalq musiqasi va an‘anaviy raqs san‘atini o‘rganishga doir qator tadqiqotlar silsilasi yuzaga kelgan.

O‘zbek folklorshunoslari xalq og‘zaki badiiy ijodi asarlarini to‘plash va tadqiq etish bilan shug‘ullanibgina qolmasdan, folklor namunalarini nashr qilish borasida ham salmoqli natijalarga erishdilar. «O‘zbek xalq dostonlari» silsilasida nashr etilgan qator epik asarlar, «O‘zbek xalq ijodi» ko‘pjildiligining qirqqa yaqin tomlari chop ettirilganligi, shuningdek, o‘zbek xalq maqollarining ikki jildlik akademik nashri, «Alpomish» dostonining akademik nashri, keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan ko‘plab alohida nashrlar buning yaqqol dalilidir.

«Folklorshunoslik» ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik minimumi imtihoni topshiruvchi talabgorlar bu fanning asosiy maqsadi va vazifalari, mohiyati, o‘ziga xos ilmiy mezonlari va kriteriyalari, folklorshunoslikdagi asosiy ilmiy metodlar va ilmiy maktablar, hozirgi kunga qadar erishilgan asosiy natijalar, o‘zbek folklorini mustaqillik davrida o‘rganishning yangicha tamoyillari va bu fanning istiqbollari haqida chuqur bilimga ega bo‘lishlari lozim.

Shuning uchun ham «Folklorshunoslik» ixtisosligi bo'yicha tuzilgan mazkur dastur o'zbek folklorshunosligining shakllanish tarixi, asosiy taraqqiyot yo'nalishlari va rivojlanish bosqichlari, yetakchi ilmiy maktablarning nazariy mezonlari, xalq badiiy ijodiyotini o'rganishning ahamiyati va mohiyati, folklor janrlarini tadqiq etish borasida erishilgan asosiy natijalar tahlili asosida yaratildi.

Asosiy qism

Folklorshunoslik metodologiyasi. Dasturning metodologik asosini O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.Mirziyoevning badiiy adabiyot, madaniyat va san'atni yanada rivojlantirish, ayniqsa, baxshichilik san'atini saqlab qolish, taraqqiy ettirish va bu sohada ustozshogirdlik aloqalarini uzviy davom ettirish doir nazariy qarashlari tashkil etadi.

Bundan tashqari taniqli o'zbek va jahon folklorshunos olimlarining tadqiqotlari, ilmiy qarashlari, tadqiqotlari mazkur dastur uchun ilmiy-nazariy manba vazifasini o'taydi. Dasturning maqsad va vazifasidan kelib chiqqan holda xalq og'azki ijodini o'rganuvchi ilmiy metodlarlar, jumladan tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, struktural, lingovpoetik, ruhiy tahlil, semiotik tahlil kabi metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Milliy qadriyatlarning tiklanishi ma'naviy yuksalishning muhim omillaridan biri. Folklor – xalq ruhiyati, milliy o'ziga xosligi, mentalitetini aks ettiruvchi badiiy qadriyat sifatida. Milliy istiqlol mafkurasi va uning tamoyillari. Navro'z bayramining bayta tiklanishi xalqimiz azaliy qadriyatlarining tantanasi ekanligi. Mustaqillik davrida Nomoddiy merosga munosabat masalasining eng murim jihatlari. Xalqimizning kelajagi, eng avvalo, uning o'ziga, ma'naviy qadriyati va milliy ongining ijodiy kuchiga bog'liq. O'zbek xalqining o'ziga xosligi uning bosib o'tgan tarixiy yo'lida, benazir ajdodlari yaratgan o'lmas ilmiy va adabiy merosida, xalq tomonidan yaratilgan urf-odat va ma'naviy xazinasida namoyon bo'lishi. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g'oyasining xalq ijodi an'alarini o'rganishdagi ahamiyati. Prezident Sh.Mirziyoevning 2019 yilda Termiz shahrida bo'lib o'tgan xalqaro baxshilar festivalida so'zlagan nutqida bayon etilgan **“folklor san'ati, ta'bir joiz bo'lsa, bu – insoniyatning bolalik qo'shig'idir”** degan fikrning tahlili. Prezident Sh.Mirziyoev asarlarida bayon etilgan nazariy qarashlar va ustuvor konsepsiyalarning o'zbek folklorini tadqiq etishdagi ahamiyati hamda xalqimiz yaratgan badiiy qadriyatlarning dunyo sivilizatsiyasi tizimidagi o'rnini belgilashdagi roli.

Folklorshunoslikning maqsadi va vazifalari

Folklorshunoslikning xalq ijodiyotini o'rganuvchi fan sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari va belgilari. Xalq og'zaki badiiy ijodiyotining o'ziga xos xususiyatlari, poetik tabiati, janrlar tarkibi, badiiyati va folklori o'rganishning ahamiyati. Folklorshunoslikning predmeti, asosiy maqsadi va vazifalari. Folklor asarlarini yozib olish, arxivlashtirish va kataloglashtirish usullari. Folklor arxivini shakllantirishning ilmiy prinsiplari. Xalq ijodi asarlarini nashrga tayyorlash mezonlari, folklor asarlarining ommaviy va ilmiy-akademik nashrlari. Folklori o'rganishning ma'naviy qadriyatlar tizimini rivojlantirish, to'plab, targ'ib etish va tadqiq qilishdagi roli.

Folklorshunoslikdagi asosiy ilmiy maktablar va ularning yetakchi ilmiy metodlari

Xalq og'zaki badiiy ijodiyotini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ilmiy yo'nalishning yuzaga kelishi. Jahon folklorshunosligining shakllanishi, taraqqiyot yo'llari, asosiy maktablari va ilg'or nazariy qarashlari. Folklorshunoslikning asosiy ilmiy tamoyillari. Folklorshunoslikdagi asosiy ilmiy maktablar va ustuvor ilmiy yo'nalishlar, ularning o'ziga xos ilmiy qarashlari. Folklorshunoslikning rivojlanish yo'llari va bosqichlari.

Folklorshunoslikda mifologik, tarixiy, antropologik maktablar, syujetlarning ko'chib yurishi nazariyasi. Folklorshunoslikda Fin maktabi va uning asosiy ilmiy natijalari. Yevropa

folklorshunosligi va uning o'zbek folklorshunosligi taraqqiyotida tutgan o'rni. Hozirgi zamon jahon folklorshunosligining yetakchi tamoyillari. Dunyo folklorshunosligidagi yetakchi ilmiy maktablar yaratgan nazariy qarashlarning o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotini o'rganishdagi ahamiyati. O'zbek folklorshunosligi maktabining jahon folklorshunosligi taraqqiyotida tutgan o'rni.

Folklorshunoslikda mifologik maktab va uning asosiy ilmiy konsepsiyalari

Dunyo folklorshunosligi tarixida mifologik maktabning shakllanish tarixi, manbalari va o'ziga xos taraqqiyot yo'li. Aka-uka Grimmlar ijodiy faoliyati va mifologik maktabning yuzaga kelishi. Mifologik maktabning asosiy yo'nalishlari. Mifologik maktab ilgari surgan ilmiy konsepsiyalar mohiyati. Mif va uning folklorshunoslar tomonidan talqin qilinishi. Mifologik tasavvur va badiiy tafakkur. Mifologiyaning tabiati, tarkibi va uning insoniyat tafakkuri rivojidadagi roli.

Mifologik maktab vakillari tomonidan folklor asarlarini tahlil qilish metodlari. Bu ilmiy maktab vakillarining asosiy yutuqlari, ularning nazariy qarashlaridagi ilg'or yo'nalishlar va ba'zi bir ilmiy chalkashliklar. Yevropa va rus folklorshunosligida mifologik maktab nazariyalarining talqini. Mifologik maktabning yetakchi yo'nalishlari va ular ilgari surgan nazariy qarashlarning folklorshunoslik tarixidagi ahamiyati. Jahon folklorshunosligi taraqqiyotida mifologik maktabning tutgan o'rni.

Mif mohiyati va tasnifi. Mif va epik janrlar diffuziyasi. O'zbek folklorshunosligida mifologiyaning o'rganilishi. G'.Akromov va o'zbek mifshunosligi. O'zbek mifologiyasini o'rganishda M.Jo'raev tadqiqotlarining o'rni. "Avesto" va o'zbek mifologiyasi. O'zbek xalq dostonlarida mifologik obrazlar. Mif va uning o'zbek folklori epik motivlarining o'zagi sifatidagi mohiyati. Qahramonning g'ayrioddiy tug'ilishi, epik shart, sinov kabi motivlarning mifologik asoslari. Mifologik tasavvurlarning folklor janrlaridagi talqini. Mif va ertak, mif va doston, mif va qo'shiq, mif va marosim, mif va afsona. Mifologiyaning epik syujetlar genezisida tutgan o'rni. Yozma adabiyotdagi «mifologizmlar».

Folklorshunoslikda "tarixiy maktab" nazariyasining o'rni

Jahon folklorshunosligining taraqqiyotida «tarixiy maktab» nazariyasining tutgan o'rni. Folklorshunoslikdagi «tarixiy maktab»ning yuzaga kelishi va taraqqiyoti. Voqelikni epik talqin qilishda tarixiylik mezoni. Tarixiy voqelik va uning folklor asarlarida badiiy talqini. Tarixiy voqelik va badiiy tasvir. Tarixiy maktabning asosiy vakillari va ularning ilmiy faoliyati. Tarixiy maktabning asosiy ilmiy qarashlari va xalq ijodini o'rganishdagi ahamiyati.

Folklorning tarixiyliigi. «Folklor va hayotiy voqelik» - xalq og'zaki badiiy ijodiyotining mohiyati va muayyan janrlarning o'ziga xos tabiatini tushunishga asos bo'ladigan dolzarb muammolardan biri sifatida. Tarixiy haqiqatning folklor asarlarida ifodalanishi. Folklor bilan tarixning o'zaro munosabati masalasiga doir qarashlar xilma-xilligi. Tarixiy qo'shiq, tarixiy rivoyat, tarixiy afsona va tarixiy dostonlar.

Folklor asarlarining tarixiy asoslari. Epik syujetlar va an'anaviy motivlar genezisi.

Folklorning yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti. Qadimgi tasavvurlar, ibtidoiy marosimlar va inonch-e'tiqodlarning folklorlarda aks etishi. Folklorning ijtimoiy hayotdagi o'rni. «Tarixiy-folkloriy jarayon» tushunchasining mohiyati va talqinlari. Folklorning tarixiy taqdiri.

O'zbek folklorshunosligining yuzaga kelish tarixi va taraqqiyot bosqichlari

O'zbek folklorshunosligi – xalq og'zaki badiiy ijodiyotini o'rganuvchi fan sifatida. Folklorni yozib olib, tadqiq etuvchi ilmiy yo'nalishning shakllanish tarixi va taraqqiyot bosqichlari. O'zbek folklorshunosligi fanining yuzaga kelishiga asos bo'lgan ilk manbalar.

Narshaxiy, Mahmud Koshg'ariy, Rabg'o'ziy kabi olim va shoirlarning asarlaridagi ilk folkloristik kuzatishlarning bu yo'nalishning kelib chiqishiga asos bo'lganligi. Folklor asarlarining ilk bor adabiy, tarixiy va ilmiy manbalarga kiritilishi. «Buxoro tarixi», «Devonu lug'otit turk» kabi manbalardagi folklor yozuvlarining ilmiy tahlili. «Qissasi Rabg'o'ziy»dagi afsona va rivoyatlar. Folklorshunoslik tarixi va uning taraqqiyot bosqichlari. Har bir davrning o'ziga xos belgilari.

O'zbek folkloriga oid manbalarning yozma adabiyot namunalarini hamda adabiyot-tarixiy, ilmiy-ma'rifiy adabiyotlarda berilishi. Alisher Navoiy asarlarida folklor janrlari va folklor ijrochilari haqida ma'lumotlar. Bobur va o'zbek folklori «Boburnoma»dagi etnofolkloristik kuzatishlar. XY-XIX asrlarda tuzilgan lug'atlarda folklorga oid qaydlar: «Abushqa», «Lug'ati chig'atoyi va turkiy usmoniy» va boshqa manbalar asosida. «Shajarai turk», «Shajarai tarokima», «Samariya» va boshqa tarixiy asarlarda o'zbek folklorining aks etishi.

Turkistonda chop ettirilgan vaqtli matbuotda o'zbek folklorining yoritilishi. Rus sharqshunoslari va etnograflarining o'zbek folklorini o'rganishga qo'shgan hissasi. A.Divaev, N.Ostroumov, A.N.Samoylovich va boshqa olimlarning folkloristik kuzatishlari.

XX asrning boshida O'zbekistonda folkloristik izlanishlarning yo'lga qo'yilishi. Dastlabki ilmiy ekspeditsiyalar va ularning natijalari. H.Zarifov ilmiy faoliyatining ilk davri: o'zbek xalq baxshilarining aniqlanishi va o'zbek eposining yozib olinish boshlanishi. O'zbek folklori namunalarini ilmiy asosda to'plashga kirishish va xalq og'zaki badiiy ijodini o'rganishning nazariy asoslari ishlab chiqilishi.

Hodi Zarifov - o'zbek folklori asoschisi

H.Zarifov – o'zbek folklorshunosligining asoschisi. XX asrning 20-yillarida H.Zarifovning ilmiy faoliyati boshlanishi. Xalq baxshilarining aniqlanishi va ularning repertuaridagi asarlarni yozib olishning tashkil etilishi. H.Zarifovning tashabbusi bilan 1928 yilda O'zbekiston Maorif Xalq komissarligi Ilmiy sho'rosining O'zbeklarni o'rganish komiteti huzuridagi Etnografiya, folklor va arxeologiya bo'yicha ilmiy-tekshirish kabineti tashkil etilishi. 1929 yildan e'tiboran O'zbekiston Davlat ilmiy-tekshirish instituti tarkibida H.Zarifov rahbarligidagi Folklor bo'limining faoliyat yurgiza boshlashi. H.Zarifov tomonidan folklor asarlarini yozib olish metodikasining ishlab chiqilishi. Xalq ijodi asarlarini to'plash maqsadida tashkil etilgan ilmiy ekspeditsiyalarning asosiy natijalari. Folklor arxiviga asos solinishi. O'zbek folklorini to'plash va sistemalashtirishda H.Zarifov ilmiy faoliyatining o'rni.

Folklor asarlarini ilmiy o'rganishning nazariy asoslari yaratilishi. H.Zarifov – yirik eposshunos. H.Zarifov tomonidan o'zbek xalq dostonlarining tasnif qilinishi. Eposning tarixiy asoslarini o'rganishda H.Zarifov ijodiy faoliyatining o'rni. O'zbek folklori asarlarini nashr etish prinsiplarining yaratilishi va xalq ijodi namunalarini chop ettirish sohasida amalga oshirilgan ishlarning ma'naviy taraqqiyotda tutgan o'rni. H.Zarifov ilmiy faoliyatining o'zbek folklorshunosligi taraqqiyotini belgilovchi xususiyatlari.

O'zbek xalq dostonlari va uni ilmiy o'rganish muammolari

Epos va uni o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbek xalq dostonlarining tasnifi, har bir turga mansub epik asarlarning o'ziga xos tabiati. Xalq dostonlarining tarixiy asoslari va shakllanish bosqichlarining folklorshunoslikda o'rganilishi. O'zbek eposi poetikasining tadqiq etilishi.

O'zbek folklorshunosligidagi xalq dostonlarini ilmiy o'rganishga bag'ishlangan asarlar tahlili. H.Zarifov, M.Afzalov, T.Mirzaev, M.Saidov, M.Murodov, A.Qahhorov, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov kabi olimlarning eposshunoslikka oid ilmiy asarlari. Xalq dostonlarining yozib olinishi va ilmiy tavsiflanishi. Dostonlar tasnifi. O'zbek xalq qahramonlik eposi «Alpomish» dostonining variantlari, tarixiy asoslari va poetikasi. XX asrning 80-90-yillarida eposshunoslik. Mustaqillik yillarida o'zbek eposshunosligining taraqqiyoti. «Alpomish» dostoni

yaratilganligining 1000 yilligining nishonlanishi va o'zbek xalq eposining o'rganishning yangi bosqichga ko'tarilishi.

O'zbek xalq nasrini o'rganishning asosiy yo'nalishlari va ilmiy natijalari

O'zbek folklorining janrlar tarkibida nasriy turga mansub asarlarning tutgan o'ri. O'zbek xalq nasrining janrlar tarkibi va uning tasnifi; Xalq nasriga mansub folklor asarlarining o'ziga xos xususiyatlarining folklorshunoslikda o'rganilishi. Mif, ertak, afsona, rivoyat, latifa, naql, og'aki hikoya kabi janrlarning o'ziga xos xususiyatlari. Folklorshunoslikda nasriy turga kiruvchi asarlarni to'plab, nashrga tayyorlash va chop ettirish borasida amalga oshirilgan ishlar. Xalq nasri janrlarining genetik ildizlari, syujet tuzilishi, motivlar tarkibi, obrazlar silsilasi va badiiy xususiyatlari. B.Karimov, M.Afzalov, K.Imomov, M.Jo'raev, G'.Jalolov, X.Egamov kabi ertakshunoslarning tadqiqotlari. O'zbek xalq afsonalarining o'rganilishida K.Imomov, U.Jumanazarov, M.Jo'raevlarning o'ri. O'zbek xalq nasrining genezisi, badiiy xususiyatlari va tipologiyasi. Xalq nasrini tadqiq etishning istiqbollari. O'zbek xalq nasrini o'rganish va tarixiy qadriyatlarni tiklash muammolari.

O'zbek xalq qo'shiqlari va ularning folklorshunoslikda o'rganilishi

«Qo'shiq» atamasi va uning folklorshunoslikdagi talqini. O'zbek xalq qo'shiqchiligi an'analari va uning o'ziga xosligi. O'zbek xalq qo'shiqlarini tasnif qilish muammolari. O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishning ilmiy prinsiplari. O'zbek xalq qo'shiqlarini o'rganishning asosiy natijalari.

O'zbek folklorshunosligida xalq qo'shiqlarining o'rganilishi tarixi. M.Alaviya tadqiqotlarida qo'shiq janri talqini. Xalq qo'shiqlarining asosiy tiplari va ularning o'ziga xos belgilari. Qo'shiqlarda ijtimoiy voqelik va xalq ruhiyatining aks etishi. Xalq qo'shiqlarining to'planishi va nashr etilishi. Qo'shiqchilikdagi lokal xususiyatlar. Folklorshunoslikda xalq lirikasining tarixiy asoslariga doir masalalarning yoritilishi. Xalq qo'shiqlarining badiiy tabiati. J.Qobulniyozovning XX asr o'zbek xalq qo'shiqchiligi, S.Ro'zimboevning Xorazm xalq qo'shiqlari, A.Musaqulovning o'zbek xalq lirikasining tarixiy asoslari, Sh.Turdimovning xalq qo'shiqlarida qo'llaniluvchi poetik ramzlarga bag'ishlangan maqolalari va monografiyasida, M.Yoqubbekovanning o'zbek xalq qo'shiqlarini lingvopoetik tahlil qilish usullari, D.O'raevaning lirik qo'shiqlar poetikasi va yig'i-yo'qlovlar badiiyatiga doir ilmiy asarlari. Istiqbol davri xalq qo'shiqchiligi an'analarning o'ziga xosligi. Qo'shiq va uning folklor-etnografik jamoalar repertuaridagi talqinlari.

Folklorshunoslikda marosim folklorini tadqiq etish muammolari

«Marosim folklori» tushunchasi va uning ilmiy talqini. O'zbek marosim folklori materiallarining to'planish tarixi. O'zbek folklorshunosligida marosim folkloriga oid materiallarni yozib olish va ilmiy tavsiflash. A.Alaviya va o'zbek xalq marosim qo'shiqlari tahlili. B.Sarimsoqov va uning o'zbek marosim folklorini o'rganishdagi o'ri. M.Jo'raev va o'zbek marosim folklorini o'rganishning yangi konsepsiyasi. Marosim folklorining etnografik jihatdan o'rganilishi. G.P.Snesarev, V.N.Basilov, T.Qilichev va boshqa etnograflar tomonidan o'zbek marosimlari folklorining tadqiq etilishi.

B.Sarimsoqov va M.Jo'raevning o'zbek marosim folklorini tadqiq etishga qo'shgan hissasi. Marosim folklorining tarkibi, asosiy janrlari, lokal belgilari va har bir janrning tarixiy asoslari. Kalendar marosimlarning ichki tasnifi masalalari va mavsumiy marosimlar folklori poetikasi. So'z magiyasiga asoslangan marosimlar folklorining qadimgi tasavvurlar bilan aloqadorligi. «Sust xotin», «Yo Haydar», «Choymomo», badik, kinna janrlarining B.Sarimsoqov

va M.Jo'raev tomonidan o'rganilishi. Oilaviy-maishiy marosimlar folklorining janrlar tarkibi. To'y marosim folklorining janrlar tarkibini tadqiq etish muammolari. «Yor-yor», «kelin salom», «jar», «kuyov salom», «alla» janrlarining o'rganilishi. O'zbek marosim folklorini to'plash va o'rganishda «Oq olma qizil olma» (O'zbek xalq ijodi. T., 1972); «Ostonasi tillodan» (T., Fan, 1993); «Oy oldida bir yulduz» (T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000) kabi nashrlarning ahamiyati.

Marosim folklori poetikasi. Marosim qo'shiqlarida badiiy vositalarning qo'llanilishi, qofiya va vazn masalasi. O'zbek xalq marosim folklori janrlarining tarixiy asoslari, tipologiyasi.

Marosim folklori janrlarining hozirgi jonli an'anadagi holati va keyingi taqdiri. An'ana va marosimlarda xalq milliy ruhiyatining aks etishi.

O'zbek xalq teatri an'analari va uning folklorshunoslikda o'rganilishi

O'zbek xalq teatri va tomosha san'ati an'alarining o'ziga xosligi, bu folklor an'alarining kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlarining tadqiq etilishi. O'zbek xalq tomosha san'atining asosiy turlari, ijrochilari va ularning repertuari. Masxarabozlik, qiziqchilik, muqallid va askiyachilik san'ati. Og'zaki drama va kulki-hikoyalarning mavzu yo'nalishi va syujeti. Askiya janri va uning turlari. Og'zaki dramalar poetikasi, syujet va motivlar talqini. Tomosha san'atining sinkretik tabiati. Xalq teatri an'alarining M.Qodirov tomonidan o'rganilishi. Uning asarlarida og'zaki drama, masxarabozlar va qiziqchilar repertuaridagi asarlar tahlili. R.Muhammadiev va askiya janrning tadqiq etilishi. Temur va temuriylar davrida tomosha san'ati. Xalq teatri an'alarining lokal tiplari va yetakchi ijodiy maktablari. Og'zaki drama va tomosha san'ati an'alarining ommaviy bayramlar hamda xalq sayillaridagi o'rni.

Cavollar:

1. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev asarlarida milliy madaniyat, baxshichilik san'atiga munosabat masalasi.
2. Baxshichilik san'atini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlar.
3. Folklor va ma'naviyat.
4. Folklorshunoslikning asosiy maqsadi va vazifalari.
5. Folklorning o'ziga xos xususiyatlari.
6. Folklorshunoslikning predmeti va tadqiqot usullari.
7. Folklorlarda motiv va syujet.
8. O'zbek folklorshunosligining yuzaga kelish tarixi va taraqqiyot bosqichlari.
9. Mahmud Koshg'ariy – folklorshunos.
10. «Qissasi Rabg'o'ziy» - folklor manbai sifatida.
11. Alisher Navoiy asarlarida folklor janrlariga oid qaydlar.
12. XIX asrning oxiri - XX asr boshida o'zbek folklorining o'rganilishi.
13. Xorijlik sharqshunos va yetnograf olimlarining o'zbek folklorini o'rganishga qo'shgan hissasi.
14. A.Divaev, N.Ostroumov, A.N.Samoylovich va boshqa olimlarning folkloristik kuzatishlari.
15. Hodi Zarifov – o'zbek folklorshunosligining asoschisi.
16. O'zbek folklori asarlarini to'plash va sistemalashtirishda H.Zarifov ilmiy faoliyatining o'rni.
17. H.Zarifov – yirik eposshunos.

18. H.Zarifov tomonidan o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini nashr etish prinsiplarining ishlab chiqilishiFolklorning o'ziga xos belgilari va xususiyatlari.
19. Folklor – so'z san'ati namunasi sifatida.
20. Xalq ijodiyoti va badiiy tafakkur taraqqiyoti.
21. Xalq ijodiyoti turlarining tavsifi.
22. Folklor-umuminsoniy qadriyat namunasi sifatida.
23. Milliy istiqlol mafkurasi va xalq ijodiyoti.
24. Folklor -ma'naviy madaniyat yodgorliklari tizimi.
25. Folklor va komil inson tarbiyasi.
26. O'zbek xalq dramasi va og'zaki teatr an'analari.
27. Xalq dramalarining ilmiy tavsifi va poetikasi.
28. O'zbek xalq tomosha san'ati asarlarining o'ziga xosligi.
29. Xalq teatri an'alarining o'rganilishi.
30. «Marosim folklori»ning mohiyati va tarixiy asoslari.
31. Marosim folklorining janrlar tarkibi va tasnifi.
32. Marosim folklorining o'rganilish tarixi.
33. Marosim folklori badiiyati.
34. Kalendar marosimlarning o'ziga xosligi.
35. Oilaviy-maishiy marosimlar folklorini o'rganish.
36. O'zbek xalq qo'shiqlarining o'ziga xos xususiyatlari.
37. Qo'shiqlarning yozib olinishi, nashr etilishi va o'rganilishi tarixi.
38. Qo'shiq va marosim munosabati.
39. Qo'shiqlarning genezisi va poetikasi.
40. M.Alaviya va o'zbek xalq qo'shiqlarining o'rganilishi.
41. Buyuk Karimiy-folklorshunos.
42. To'ra Mirzaev ilmiy faoliyati va o'zbek folklorshunosligining taraqqiyoti.
43. O'zbek xalq nasrining janrlar tarkibi va tasnifi.
44. O'zbek xalq nasrining folklorshunoslikda o'rganilishi.
45. Ertak, afsona va rivoyatlarning o'ziga xos xususiyatlari.
46. Xalq nasri janrlarining poetikasi.
47. O'zbek xalq dostonchiligi va dostonchilik maktablari.
48. Xalq baxshilarining epik repertuari va uning o'ziga xos xususiyatlari
49. Halq dostonlari tasnifi va tavsifi.
50. O'zbek xalq dostonlari poetikasi.
51. O'zbek folklorshunosligining shakllanish tarixi.
52. O'zbek folklorshunosligining rivojlanish bosqichlarini belgilash.
53. O'zbek folklorshunosligining asosiy ilmiy natijalari.
54. O'zbek folklorshunosligining boshqa fanlar tizimidagi o'rni.
55. Folklorning tarixiyliigi va folklorda tarixiy voqelik talqini.
56. Folklorni tarixiy nuqtai nazardan o'rganishning ahamiyati.
57. «Tarixiy maktab»ning o'ziga xos tabiati va ilmiy metodlari.
58. «Tarixiy maktab»ning yuzaga kelishi va rivojlanishi.
59. Mifologik maktabning yuzaga kelish tarixi va taraqqiyot bosqichlari.
60. Mifologik maktabning asosiy ilmiy qarashlari.
61. Mif va uning mifologik maktab vakillari asarlaridagi talqini.
62. Mifologik maktabning yutuqlari va kamchiliklari.
63. Folklorshunoslikning asosiy ilmiy yo'nalishlari.
64. Folklorshunoslikdagi yetakchi ilmiy maktablar va ularning o'ziga xos tadqiq metodlari.
65. Folklorshunoslikdagi zamonaviy tadqiq usullari.
66. O'zbek folklorshunosligidagi ilmiy yo'nalishlar.
67. Milliy istiqlol va o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodi.

68. Mustaqillik davri o'zbek folklorshunosligi.
69. Ma'naviy qadriyatlarning tiklanishida folklor qadriyatlarini o'rganishning ahamiyati.
70. Mustaqillik davrida mif, marosim folklori va milliy an'analarning jiddiy o'rganilishi.
71. O'zbek folklorshunosligining istiqbollari.
72. Folklor asarlarini yozib olish metodikasi.
73. Folklor arxivi ishini tashkil etish va xalq ijodi materiallarini arxivlashtir
74. Boychechak marosimi va uning mavsumiy marosimlar tizimidagi o'rni.
75. O'lan janrining o'ziga xos xususiyatlari.
76. Lapar janri xalq lirikasida tutgan o'rni.
77. Yor-yor janri badiiyati.
78. Kelin salom va kuyov salom janrlarining marosim lirikasidagi o'rni va badiiyati.
79. Lirik qo'shiq va ularning tasnifi masalalari.
80. Xalq lirikasida poetik ramz va ularning semantikasi.
81. Etnos va epos muammosi.
82. Marosim va epos.
83. Baxshilik san'atida ustoz va shogird an'analari.
84. Dostonchilik san'ati va uning asosiy xususiyatlari.
85. Folklorda an'ana va badiha masalalari.
86. Baxshi-shoirlarning estetik qarashlari
87. Baxshi va uning auditoriyasi masalalari.
88. Baxshi repertuarining asosiy xususiyatlari va uning boyib borish omillari.
89. Dostonchilik maktablari va ularning tarixiy taqdiri.
90. Folklorda varantlilik masalari. Versiya va variant.
91. Xalq dostonlarining tasnif etishning asosiy prinsiplari.
92. Qahramonlik eposining asosiy xususiyatlari.
93. Romanik eposning o'ziga xos belgilari.
94. Xalq dostonlarida an'anaviy epik formulaning struktural semantik vazifasi.
95. Xalq dostonlarida turkumlik masalasi.
96. Epos va mif munosabati.
97. Epik asarlarda Alplik tizimi.
98. Epik asar strukturasi.
99. Ertak janrining o'ziga xos xususiyatlari va tasnifi.
100. Bolalar folklori va uning janrlar tarkibi.
101. Alla jarining badiiyati.
102. Askiya san'ati va payrovlar.
103. Xalq maqollarining tasnifi va badiiyati.
104. O'zbek xalq lirikasida hosildorlik kultlarining ahamiyati.
105. O'zbek xalq lirikasida totemistik va shomonlik rudimentlarining badiiy ifodasi.
106. Xalq lirikasining spesikasi va tasnifi.
107. Xalq qo'shiqlarining kuy va raqs bilan munosabati.
108. Marosim, urf-odatlar va qo'shiq.
109. Eposda alplik tizimining o'rni.
110. Quyosh turkum miflari va "Go'ro'g'li" eposi.
111. Folklorda motiv va syujet munosabati.
112. Epik boshlamani epos strukturasi va semantikasida tutgan o'rni.
113. Terma janri va uning dostonchilik san'atida tutgan o'rni.
114. Folklorda ruhiy tahlil metodi.
115. Ruhiy tahlil metodining boshqa metodlardan farqli jihatlari.
116. Epik asarlarda psixologik tasvir masalasi.
117. Global jamiyatda folklor tarbiya vositasi sifatida.

118. Navro‘z bayram iva uning xalq hayotida tutgan o‘rni.
119. Mavsumiy marosimlar va Navro‘z bayrmi.
120. Epik asarlarda motiv va syujet masalasi.
121. Dostonlarda boshlamaning o‘rni va ahamiyati.
122. Epik formula nazariyasi.
123. Xalq og‘zaki ijodida versiya va variant.
124. Epik asarlarda turg‘un va o‘zgaruvchan matn xususida.
125. Janubiy O‘zbekiston dostonchilik maktablari.
126. Baxshi - epik ijodkor.
127. O‘zbek xalq ertaklarining tasnifi masalalari.
128. Sehrli ertaklarning o‘ziga xos xususiyatlari.
129. Hayvonlar haqidagi ertaklar strukturasi.
130. Og‘zakilik - xalq og‘zaki ijodining asosiy qonuniyatlaridan biri sifatida.
131. Sayyor syujet nazariyasi.
132. Folklorda semiotik talqin.
133. Folklorda janrlaro munosabat masalasi.
134. Mif va marosim.
135. Mavsumiy marosimlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
136. Nomarosim folklori numunalari.
137. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining tasnifi masalalari.
138. Xalq qo‘shiqlarida totemistik qarashlar.
139. Qo‘shiq janri va qadimiy tasavvurlar.
140. Epik she‘r tuzilishi.
141. O‘zbek folklorida saj.
142. Ommaviy axbarot vositalarida o‘zbek folklorining yoritilishi.
143. Ertaklarning struktural tahlili.
144. «Alpomish» dostonining mifologik asoslari.
145. Dostonlarda tug‘ilish motivi.
146. Epik ijodda sinov motivi.
147. Xalq og‘zaki ijodida badiiy shartlilik.
148. Xalq qo‘shiqlarida metafora.
149. Xalq ertaklarida sehrli raqamlar.
150. Ertaklarda homiy obrazi.
151. Epik ijodda ko‘makchi qahramon masalasi.
152. «Alpomish» dostonida ayol obrazi.
153. Xalq qo‘shiqlarida ranglar simbolikasi.
154. Kitobiy dostonlarning o‘ziga xos xususiyatlari.
155. Qahramonlik dostonlarining spesifiu xususiyatlari.
156. Navro‘z bayrami bilan bog‘liq mifolik tasavvurlar.
157. Navro‘z bayrami va tomosho san‘ati.
158. Navro‘z bayrami bilan bog‘liq urf-odatlar.
159. Bolalar folklorining o‘ziga xos xususiyatlari.

ADABIYO‘TLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent, “O‘zbekiston”, 1995, 23-bet.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga chiqaramiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2018. –592 b.

3. Mirziyoev Sh. "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida" qaror // Xalq so'zi. – Toshkent, 2018 yil 2 noyabr.
4. Abulg'oziy. Shajarai turk.–Toshkent: Cho'lpon, 1992. –192 b.
5. Alekseev N.A. Shamanizm Tyurkoyazychnyx narodov Sibiri. –Novosibirsk: Nauka, 1984.
6. Alekseev N.A. Rannie formy relegii tyurkoyazychnyx narodov Sibiri.–Novosibirsk: Nauka, 1980. –318 s.
7. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: 1959.
8. Alpomish.O'zbek xalq qahramonlik eposi. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li.Nashrga tayyorlovchi To'ra Mirzaev. –Toshkent: Fan, 1999.– 827 b.
9. Anikin V. P., Kruglov Yu.G. Russkoe narodnoe poeticheskoe tvorchestvo.–L.: Prosveshenie, 1983. –416 s.
10. Aniki V.P. Ruskiy folklor.–M.: Vysshaya shkola, 1987. –286 s.
11. Asrlarga tengdosh qo'shiqlar. Urf–odat va maro sim qo'shiqlari. Nashrga tayyorlovchilar J.Eshonqulov, I.Abdurahmonov.–Toshkent., 1991.–124 b.
12. Arastu. Poetika.–Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.–152 b.
13. Afanasev Aleksandr. Slavyanskaya mifologiya.–M.: Eksmo –Midgard, 2008.–1520 s.
14. Afzalov M.I. O'zbek xalq ertaklari haqida.–Toshkent: Fan, 1964. –120 b.
15. Bobolardan qolgan naqlar. Yozib oluvchi Rahmatulla Yusu o'g'li. To'plab nashrga tayyorlovchi, so'zboshi, izohlar mualliflari Mamatqul Jo'raev va Ulug'bek Sattorov.–Toshkent: Fan, 1998.–128 b.
16. Golosovker Ya.E. Logika mifa.–M.: Nauka, 1987.–218 s.
17. Gomer.Odessiya. Pervod s drevnegrecheskogo V.Jukovskogo.–M.: Pravda, 1985. –320 s.
18. Grinser. Epos drevnogo mira // Tipologiya i vzaimosvyazy literatury drevnogo mira.–M.: Nauka, 1971.–S.134–205.
19. Go'ro'g'lining to'g'ilishi. Aytuvchi Muhammad Jomrot o'g'li Po'lkan. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. –Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. –328 b.
20. Domusulmanskaya verovaniya i obryady v Sredney Azii.–M.: Nauka, 1975.–342 s.
21. Drevnotyurskiy slovar.–L.: Nauka, 1969.–676 s.
22. Dyakonov I.M. Epos o Gilgameshe // Epos o «Gilgamesh.–M.: Nauka, 1961. – S.91.143.
23. Yoqubbekova M. O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari.–Toshkent: Fan, 2005. –162 b.
24. Jalolov G'. O'zbek xalq ertaklari poetikasi.–Toshkent: Fan, 1971. –155 b.
25. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. –124 b.
26. Jirmunskiy V.M., Zarifov X.T. Uzbekskiy narodnyy geroicheskoy epos. – Moskva: Gosudarstvennoe izdatelstvo xudojestvennoy literatury, 1947. –520 s.
27. Jirmunskiy V.M. Tyurskiy geroicheskoy yepos. –L.: Nauka, 1974. –728 s.
28. Jirmunskiy V.M. Sravnitelnoe literaturovednie (Vostok i Zapad).–L.: Nauka, 1979.– 496 s.
29. Jirmunskiy V.M. Legenda o prizvanii pevna // Sravnitelnoe literaturovednie (Vostok i Zapad).–L.: Nauka, 1979. –S.397–407.
30. Jumanazarov U. O'zbek folklori va tarixiy voqelik.–Tashkent: Fan, 1995.–144 b.
31. Jumoq majumasi.–Qo'qon. 1917.
32. Jo'rayev M. O'zbek xalq ertaklarida sehrli raqamlar.–Toshkent: Fan, 1991.– 152 b.
33. Jo'rayev M. O'zbek samoviy afsonalari.–Toshkent:Fan, 1996.–108 b.

34. Jo'rayev M., Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori.–Toshkent: Fan, 2001.–136 b.
35. Zarifov H. T. Folklor va arxeologiya materiallari qiyosiy o'rganish masalasiga doir// O'zbek tili va adabiyoti.1958, №1.–B.25–30.
36. Zarifov H. T. O'zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo'yicha tekshirishlar// Po'ltan shoir. Tadqiqotlar.–Toshkent: Fan, 1976.–34–42.
37. Zarifov.X.T. Osnovnyie motivy eposa "Alpamish" // Ob epose «Alpamish».–Tashkent: Fan, 1959.–S.6–25.
38. Zarifov H. T Topishmoqlar// O'zbek folklori xrestomatiya.–Toshkent: Fan, 1939.
39. Zolotaryov A.M. Rodovoy stroy pervobytnaya mifologiya.–M.: Nauka, 1964. – 328 s.
40. Imomov K. O'zbek xalq prozasi poetikasi. –Tashkent: Fan, 2009.
41. Lazutin S. G. Poetika russkogo folklori.–M.: Vysshaya shkola, 1989. –208 s.
42. Lobacheva N. P. Razlichnie obryadovye kompleksi v svadebnom seremoniale narodov Sredney Azii i Kazaxistana // Domusulmanskaya verovaniya i obryadi v Sredney Azii.–M.: Nauka, 1975.–S.302–320.
43. Kravsov N.I., Lazutin S.G. Russkoe ustnoe narodnoe tvorchestvo.–M.: Vysshaya shkola, 1983. 448 s.
44. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. III- tom. –Toshkent: Fan, 1960. – B.I38.
45. Mirzayev T.Xalq baxshilarining epik repurtuari.–Toshkent: Fan, 1979.–152 bet.
46. Mirzayev T. «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968.– 168 b.
47. Mirzayev T. «Alpomish» qahramonlik eposi va o'zbek dostonlari // «Alpomish». –Toshkent: Fan,1999.–B. 7–49;
48. Mirzayev T. Epos i skazitel.–Tashkent: Fan, 2008.
49. Mirzayev To'ra. Po'ltan xakida so'z //Po'ltan shoir. –Toshkent: 1976.–B.6.
50. Mirzayev T. Hodi Zarif suhbatlari. –Toshkent, 2013. 314 b.
51. Mify narodov mira. V dvux tomax. 1-tom.–Moskva:Sovetskaya ensiklopediya, 1991. –672 s.
52. Mify narodov mira. V dvux tomax. 2-tom.–Moskva: Sovetskaya ensiklopediya,1992. 720 s.
53. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi.–Toshkent: Fan, 1995. –168 b.
54. Ob epose «Alpamysh». Materialy po obsujdeniyu eposa «Alpamysh».–Tashkent: Fan, 1959.–216 s.
55. Oltin beshik. Ertaklar. Nashrga tayyorlovchilar: M.Afzalov, K. Imomov.–Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti,1985. –256 b.
56. Oltin olma. O'zbek xalq ertaklari. Nashrga tayyorlovchilar: M. Afzalov, Z. Husainova, T. Mirzaev. –Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. –310 b.
57. Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq qo'shiqlari. To'plovchi Muzayyana Alaviya.–Toshkent: Fan, 1972. –232 b.
58. Propp V. Ya. Folklor i deystvitelnost.–M.: 1976.327 s.
59. Propp V. Ya. Morfologiya skazki.–M.: 1969.–168 s.
60. Propp V.Ya. Russkie agrarnye prazdniki.–Sankt–Peterburg: 1995.–176 s.
61. Propp V.Ya. Motiv chudesnogo rojdeniya // Folklor i deystvitelnost.–M.: 1976.–S.203–240.
62. Propp V.Ya. Istoricheskoe korni volshebnoy skazki.–L.: Izd–vo LGU, 1986. – 366 s.
63. Putilov B.N. Motiv kak syujetoobrazuyushiy elemaent// Tipologicheskie issledovaniya po folklori.–M.: 1975.–S.141–181. (Kitob 320 betdan iborat).
64. Putilov B. Metodologiya sravnitelno–istoricheskogo izucheniya folklori.–L.: Nauka, 1976. –244 s.

65. Putilov B.N. Russkiy yujnoslavyanskiy epos.–M.:Nuaka, 1971. –316 s.
66. Radlov V.V. Iz Sibiri.–M.: Nauka, 1980. –749 s.
67. Rahmonov N. Bitiklar olamida.–Toshkent: Fan, 1990. –37 b.
68. Rahmon N. Turk xoqonligi.–Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. 144 b.
69. Roshianu Nikolae. Traditsionnye formuly skazki.–M.: Nauka, 1974.–216 s.
70. Rustamxon. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti. –M.: Nauka, 1972. 331s.
71. Saidov M. O‘zbek dostonlarida badiiy mahorat.–Toshkent: Fan, 1969. –264 b.
72. Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori.–Toshkent: Fan, 1986. 216 b.
73. Sarimsoqov B. Orzugul dostoni yuzasidan bir necha qaydlar // Islom shoir va uning xalq poeziyasida tutgan o‘rni.–Toshkent: Fan, 1978. –B. 27–36.
74. Suleymanov A. Bashkirskiy folklor.–Ufa, 2008.–140s.
75. Sulton Izzat.Adabiyot nazariyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980.-392 b.
76. Sulton Izzat. Bahovuddin Naqshband abadiyati.–Toshkent:Fan, 1994. –88 b.
77. Surazakov S.S. Altayskie geroichesiy epos.–M.: 1985. –256 s.
78. Susambil //O‘zbek xalq ertaklari. Ikkinchi jild. Tuzuvchilar M.Afzalov, H.Rasulov, Z. Husainova. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1996.–B.8-16.
79. Taylor E.B. Pervobytnaya kultura.–M.: Politeskoy literatury, 1989. –573 s.
80. Timofeyev L.I. Osnovy teorii literatury.–M.: Prosvetshenie,1971.–404 s.
81. Topishmoqlar. O‘zbek xalq ijodi. Ko‘p tomlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va sa‘nat nashriyoti, 1981.–B.
82. Tokarev S.A. Rannye formy relegii. –M.: Polticheskix literatury, 1990. –622 s.
83. Tokarev S.A. Religiya v istorii narodov mira.–M.: Politicheskoy literatury, 1976. –375 s.
84. Turdimov Sh.G. Poeticheskie simvolы v uezbekskix narodnyx liricheskix pesnyax. AKD. – Tashkent: 1987. – S.24.
85. Turdimov Sh. «Go‘ro‘g‘li» dostonlarining genezis iva tadrijiy bosqichlari. –Toshkent:Fan, 2011. – 240 b.
86. Turdimov Sh. Etnos va epos. –Toshkent:O‘zbekiston, 2012. – 96 b.
87. Fromm Erix. Dusha cheloveka. –M.: Respublika, 1992. –430 s.
88. Frezer Dj. Folklor vetxom zavete. –M.: Politicheskaya literatury, 1985. –511 s.
89. Eshonqul Jabbor. Folklor: obraz va talqin. –Qarshi: Nasaf, 1999. 160 b.
90. Eshonqul Jabbor. Epik tafakkur tadriji. Monografiya. –Toshkent: Fan, 2006.–122 b.
91. Eshonqul Jabbor. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. –Toshkent: Fan, 2011. – 304 b.
92. Yakka Ahmad. Egash Jumanbul o‘g‘li varianti. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1984. –
93. Xalizev V.Ye. Teoriya literatury. –M.:Vysshaya shokola, 2002.–437 s.
94. Qahhorova Sh.Epik an‘ana va «Ollonazr Olchinbek» dostoni.–Toshkent: Muharrir, 2010. –116 b.
95. O‘zbek folklorshunosligi masalalari. Ilmiy to‘plam. 2-kitob. –Toshkent: Fan, 2010. –172 b.
96. O‘zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. I-jild.Tuzuvchilar: M.I. Afzalov, H. Rasulov, Z. Husainova. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1995. –256 b.
97. O‘zbek xalq ertaklari. Ikki jildlik. II-jild.Tuzuvchilar: M.I. Afzalov, H. Rasulov, Z. Husainova. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1996.–320 b.
98. O‘zbek xalq poetik ijodi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1980.–362 b.
99. O‘zbek xalq ertaklari.–Toshkent: O‘qituvchi, 1991.–258 b.
100. O‘rayeva Darmonoy. O‘zbek motam marosimi folklori.–Toshkent: Fan, 2004. – 120 b.

101. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.—Toshkent:O'qituvchi, 1979. 368 b.